

Otaxonova Mashxuraxon Abdullajonovna

*Andijon viloyati Ulug' nor tumani
maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 13-umumiy
o'rta talim maktabi
amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida jamiyatdagi qabul qilingan me'yordan og'ishgan bolalar bilan ishlash, ularning psixologik holati diagnostikasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, xulqiy og'ish, o'smir, jamiyat, psixologiya.

Psixologiyada axloq atamasidan tur va inson faolligi darajasi, uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalilaniladi, Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bioxevioristlar uni psixologiya fanining predmeti deb e'lon qilgan vaqtidan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Deviantlik, og'ishgan xulq psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquqni ximoyalovchi organlar xodimlari, sotsiologlar, faylasuflarda jonli qiziqish uyg'otib kelgan. Og'ishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega. Atamaning "ijtimoiy me`yor" tushunchasi bilan bog'liqligi muammoni ko'p marotaba murakkablashtiradi, chunki me`yorning chegaralari o'ta shartli, insonda esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha absolyut me`yorning o'zi mayjud emas. Yondoshuvlarning turli-tumanligi shaxs xulqini og'ishganligini tashxis qilish, uni profilaktikasi hamda ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish davomida bartaraf etish kabi amaliy vazifalarni yechishda ham ko'zga tashlanadi. Birinchidan, "og'ishgan xulq" tushunchasining ko'p ma'noliligi va bu bilan bog'liq bo'lgan terminologik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

chalkashliklar. Ikkinchidan, har birimizning ichki dunyomizga xos bo'lgan shaxsiy ozodlik ehtiyoji va jamiyatning cheklashlari orasidagi qarama-qarshilikdir.

Insonni biologik, fiziologik psixologik o'sishining eng murakkab bosqichlaridan biri o'smirlik yosh davridir. Ushbu yosh davri eng murakkab o'zgarishlar, qayta qurishlar davri. Shu bilan birga og'ir inqirozlar, salbiy xolatlar, kechinmalar davri hamdir. Bolalarning balog'at yoshi biologik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Bu davr 11- yoshdan 14,15 yoshgacha davom etadi. Ana shu yillar davomida o'g'il- qizlar jismoniy jihatdan tez yetiladi. Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak jismlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishlari ham o'zgaradi. Qo'l – oyoq o'sib, hatto ota – onaning ko'ziga beso'naqay ko'rindi. Lekin o'smirda qon tomirlari kengayishi boshqa a'zolar o'sishidan orqada qoladi, natijada qon tomirlarda qon bosimi ortadi. Bu esa unda noxushlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ana shunga o'xhash o'zgarishlar ko'pincha o'smir ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U tajangroq, ba'zida xuda behudaga injiqlik qiladigan, serzarda, gap ko'tarmas bo'lib qoladi. Shunday paytlarda ayrim ota – onalar boladagi o'zgarishini kuzatib, uning yurish turishiga razm solib, so'ng to'g'ri muomala qilish o'rniga gohida "ey muncha qo'pol beo'xshov bo'lib ketyapsan, xech narsaga qovushmaysan" deb uni ranjitib qo'yadilar. Ma'lumki affektiv qo'zg'oluvchanlik ko'p jihatdan o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu xolat me'yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ – endokrin jixatdan qayta qurilishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu yosh davr xam biologik ham psixologik tomonidan o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu o'smir yosh davrining fenomini hamdir.

Ta'kidlash joizki qayd etilgan xususiyatlar ma'lum muddat saqlanadi yana surunkali shikastlanish bilan bog'liq depressiya oqibati bo'lishi mumkin. Ular yolg'izlikni yoqtiradilar lekin ularni ijtimoiy yolg'izlik azoblamaydi, ammo o'z yaqinlariga nisbatan yaqinlik bo'ladi, norasmiy muloqotlarning talab qiluvchi sharoitlar (lager, internat hayoti) va ijtimoiy vaziyatlarning yoqtirmaydilar. Tengqurlari bilan o'zları bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni, o'z ayblarini ham

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yuklab qo‘yadilar. Jur’atsizliklari bois har – xil bahonalar to‘qiydilar. Bu xarakter axloqiy shizoid tipiga mos keladi. Uning ilk ko‘rinishlari 2-2,5 yoshlarga to‘g‘ri keladi, ularning begonalardan qochishga intilishi, o‘zgalardan qo‘rqishlari va davdirashlari ammo oilaning eng yaqin kishilariga, oila a’zolariga bog‘lanib qoladi. O‘s米尔lik yoshiga kelib bu xolat ularda jinsiy qiziqishlarning sekinlashuviga olib keladi.

A) xafagarchilikka asos bo‘lmagan narsalarga xam kulgi bo‘ldim deb qarashi, o‘z g‘ururini o‘zgalar oldida toptalishi, o‘zini “yerga” urilgan deb qarashi va undan uyalishi, o‘zgalar tomonidan o‘zini xo‘rlangandek xis qilishi.

B) xali uni tanqid qilmasliklaridan oldin, yaxshisi ular bilan umunosabat o‘rnatmaslik

V) xo‘rlanishdan qo‘rqishi tufayli hammadan o‘zini chetga tortishi

G) aslida o‘zgalar tomonidan qabul qilinishini o‘ylash.

D) o‘z xatolaridan qayg‘urishi va muvaffaqiyatlarni kamsitish, o‘zini o‘zi past baholashidan azoblanishi va boshqa begonalar bilan kechadigan har qanday aloqadan qiynaladi atrofdagilar ularni “ortiqcha” deb o‘laydi.

Y) ota – ona yoki oila a’zolarining shahvoniy hayotga ichkilikka berilishi.

O) oila a’zolari ichida sudlangan odamning uchrashi.

J) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo‘li egrilikka) o‘rgatishi va hakozo.

O‘s米尔lik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib bu davrda tananing intensiv tarzdagi rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro‘y beradi. Yurak va qon tomir xarakterlarida ham notekislik ro‘y beradi va u bolani fe’lining o‘zgaruvchan, dinamik va ba’zan noma’qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, bular albatta asab tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bola tezda achchiqlanadigan yosh tormozlanishi yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqmaydigan tushkunlikda ham qolishi mumkin. O‘s米尔lik taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog‘at bo‘lib u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. Shu bilan bog‘liq holda ongli (ko‘pincha ongsiz) jinsiy mayllar, shu bilan bog‘liq noxush xis – kamchiliklar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

fikrlar paydo bo‘ladiki, bola ularni asl sababini ham tushunib yetolmaydi. Psixik taraqqiyotning o‘ziga xosligi shundaki u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko‘plab qarama – qarshiliklarni o‘z ichiga oladi. Bu taraqqiyot tashkil etilgan o‘quv faoliyati bola psixikasining muozanati va uning turli fikr o‘ylaridan chalg‘ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa diqqat, xotira tafakkur jarayoni rivojlanadi. Ayni shu davrda o‘smir mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko‘proq o‘z fikr o‘ylari dunyosida mushohada qilishi, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko‘paytirishga intiladi. Buning sababi yana o‘sha kattalikka o‘tish bo‘lib o‘smirda o‘ziga xos kattalik xissi paydo bo‘ladi. Shuning uchun xam mакtabda berilgan mustaqillik va to‘g‘ri tashkil etilgan o‘qish sharoitlari, samiyilik muhiti unda mustaqil fikrlashga katta imkoniyatlar ochishni va unda ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin. Mantiqan fikrlashga o‘rganish u esa unga o‘zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o‘ziga xos o‘smirlik egosentrizimining shakllanishiga butun olam va uning qonunlari unga bo‘ysunishidir.

Deviant va kriminal xulq ko‘p bosqichli ijtimoiy jarayonlar vositasida saqlanib turadi. Deviant hodisalarning faqat individual muammolariga to‘xtalib, jinoyat xulqining ijtimoiy sabablarini ko‘rsatmaslik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Robert Mertonning fikricha hozirgi iste‘molchilik jamiyatida ko‘pchilik odamlar nima qilib, bo‘lsa ham daromad, iste‘mol va muvaffaqiyatga intilishadi. Jamiyat tomonidan inkor qilingan, tan olinmagan, chetga surib qo‘yilgan odamlar uchun bu maqsadlarga qonuniy yo‘l bilan yetish juda og‘ir. Shuning uchun ular muvaffaqiyatga kriminal yo‘l bilan erishishga chog‘lanishadi, yoki shunga majbur bo‘lishadi. Bunday odamlar kamomad qilishadi, aldashadi, yoki talashadi, qisqasi qonun yo‘li bilan olishlari mumkin bo‘lgan narsaga jinoyat yo‘li bilan ega bo‘lishadi. J.Xodfruaning haqqoniy e’tirofi bo‘yicha "Qanday axloqni me’yoriy deb hisoblash mumkin?" degan savol inson axloqini, shu jumladan, og‘ishgan xulqni tushuntirish uchun markaziy hisoblanadi. "Normal", "anomal" axloq tushunchasining ma’nosiga qat’iy ta’rif berish murakkab, ular orasidagi chegara

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

esa o'ta noaniq. Shunga qaramay, ilmda va kundalik hayotda ushbu tushunchalardan birgalikda foydalilaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Tibbiyot psixologiyasi" Toshkent 2010
2. B.N.Sirliyev, N.Ismoilova, I.M.Xakimova "Stress va agressiya" Toshkent 2014 bet
3. Rean A.A "Prakticheskaya psixodiagnostika lichnosti" Piter 2001
4. www.cyberleninka.ru